



Some Reflections on Communicative Barriers

Makhkamkhon GAPPAROVA¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025

Received in revised form

10 April 2025

Accepted 2 April 2025

Available online

25 May 2025

Keywords:

communication,
phonetic barrier,
stylistic barrier,
human factor,
acoustic noise,
psychological barrier.

ABSTRACT

This article talks about the inadequate situations that arise in the process of transmitting the necessary information to the receiver. Researchers distinguish several types of them. One of the most common types of barriers arising on the basis of socio-cultural differences (social, political, religious, professional, etc.) is mainly in the nature of a semantic barrier, which for some reason does not understand or accept the meaning of what is said. happens after unwillingness. The existence of classifications based on different approaches that imply specific aspects of the communication barrier has been researched.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5/S-pp367-372>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kommunikativ to'siqlarga doir ayrim mulohazalar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kommunikatsiya,
fonetik to'siq,
stilistik to'siq,
inson omili,
akustik shovqin,
psixologik to'siq.

Mazkur maqolada kommunikativ to'siq kerakli ma'lumotni qabul qiluvchiga uzatish jarayonida yuzaga keladigan noadekvat holatlar haqida so'z olib borilgan. Tadqiqotchilar ularning bir necha turlarini ajratadilar. Eng keng tarqalgan turlaridan biri ijtimoiy-madaniy farqlar asosida yuzaga keladigan (ijtimoiy, siyosiy, diniy, kasbiy va boshqa) to'siqlar asosan, semantik to'siq xarakterida bo'lib, biror sababga ko'ra aytilganlarning ma'nosiga tushunmaslik, qabul qilmaslik, xohlamaslik ortidan yuz beradi. Kommunikativ to'siqning ayrica jihatlarini nazarda tutuvchi turlicha yondashuvlar asosidagi tasniflari mavjudligi tadqiq etilgan.

¹ Researcher, Andijan State Institute of Foreign Languages. E-mail: moydinjonovsoyibjon@gmail.com

Некоторые соображения о коммуникационных барьерах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

общение,
фонетический барьер,
стилистический барьер,
человеческий фактор,
акустический шум,
психологический барьер.

В данной статье говорится о неадекватных ситуациях, возникающих в процессе передачи необходимой информации получателю. Исследователи выделяют несколько их типов. Один из наиболее распространенных видов барьеров, возникающих на основе социокультурных различий (социальных, политических, религиозных, профессиональных и т.д.), носит преимущественно смысловой характер, который по каким-либо причинам не понимает или не принимает смысл сказанного, происходит по нежеланию. Исследовано существование классификаций, основанных на различных подходах, подразумевающих конкретные аспекты коммуникативного барьера.

KIRISH:

Kommunikativ to'siqlarning ayri-ayrancha jihatlari nazarda tutuvchi turlicha yondashuvlar asosidagi tasniflari mavjud.

Ularning ayrimlariga e'tibor qaratamiz.

Kommunikativ to'siqlarning umumiy tabiatiga ko'ra quyidagi turlari ajratiladi:

- fonetik to'siq – kommunikantlarning tez, noaniq gapirishi;
- mazmuniy to'siq – jargon yoki terminlarning qo'llanishi;
- uslubiy to'siq – muloqot vaziyatiga mos bo'lmagan nutq, rasmiylik;
- mantiqiy idrok to'sig'i – murakkab, ishonchsiz nutq;
- ijtimoiy-madaniy to'siq – muayyan ijtimoiy maqomlarning farqlanishi yoki kommunikantlarning har xil tilda gapirishi;

– psixologik to'siq – psixologik jihatdan ishonchsiz uzatish yoki qabul qilish (ishonchsiz stereotiplar, tushunmovchilikni taxmin qilish, salbiy ustanovka).

Muammoning qamrab olinishi nuqtai nazaridan mazkur tasnifdagi fonetik to'siq (foneticheskiy barer) tushunchasini inkor etmagan holda bu o'rinda uning o'rniga lisoniy to'siq atamasini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Negaki, kommunikativ to'siqlarning nutqiy jihati faqat fonetik xususiyatlar bilangina chegaralanmaydi. Zero, aytib o'tish joizki, L.S. Popova lisoniy to'siqlarning uch turini ajratib ko'rsatadi:

- semantik to'siq muloqot sheriklarining semantik mazmunida mavjud bo'lgan sezilarli farqlar va nomuvofiqliklar tufayli yuzaga keladi. Bu to'siq, asosan, jargon va slenglar muammosi bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy va etnik tafovutlar yetarli darajada bo'lgan har qanday jamiyatda ko'plab submadaniyatlarning mavjudligidan kelib chiqadi;

- stilistik to'siq axborot uzatuvchi va qabul qiluvchining psixologik holati yoki nutq uslubi o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lganda paydo bo'ladi. Bunday to'siqqa so'kinish, parazit (ortiqcha), tushunarsiz va ko'p bo'g'inli so'zlardan foydalanish sabab bo'lishi mumkin. Bularning barchasi muloqotning buzilishiga olib kelishi mumkin;

- fonetik to'siq turli tillarda yoki dialektlarda muloqot qilish jarayonida agar muloqot ishtirokchilari diksiya va nutqda turli xil nuqsonlarga ega bo'lgan holatda paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, tez gapirish, parazit tovushlar va boshqalarni qo'llash ham sabab bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kommunikativ to'siq turlari bo'yicha O.Yu.Bryuxovaning tasnifi ancha mukammal shakllantirilgan.

1. Til va nutq to'siqlari. Xabar yoki uning tarkibiy qismlarining ma'nosi aniq emasligi, haddan tashqari murakkablik, jo'natuvchining noaniq niyati va boshqalar.

2. Shaxslararo to'siqlar. Muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro tushunishga to'sqinlik qiladigan salbiy munosabatlar.

3. Shaxsiy to'siqlar. Muloqot ishtirokchilarining shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq to'siqlar (uyatchanlik, qat'iyatsizlik, temperament va xarakter xususiyatlari va boshqalar), shuningdek, ularning muloqot odobi xususiyatlari bilan bog'liq.

4. Makon-zamon to'siqlari. Muloqot ishtirokchilarining bir-biridan uzoqligi bilan bog'liq to'siqlar, shuningdek, xabar yuborilganidan keyin sezilarli vaqt o'tishi bilan qabul qilingan holatlar.

5. Texnik to'siqlar. Axborot uzatish vositalarining noto'g'ri ishlashi yoki ulardan noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga keladigan to'siqlar.

6. Shart-sharoit bilan bog'liq to'siqlar. Muloqotga xalaqit beradigan tabiiy yoki boshqa omillar (shovqin, xona harorati, muloqot sharoitlari va boshqalar) mavjudligi bilan bog'liq to'siqlar.

7. Ijtimoiy-madaniy to'siqlar. Turli odamlar guruhlar tomonidan baham ko'rilgan me'yorlar, qadriyatlar, stereotiplardagi farqlar natijasida yuzaga keladigan to'siqlar.

8. Madaniyatlararo to'siqlar. Tillar yoki madaniyatlar o'rtasidagi farqlar natijasida yuzaga keladigan to'siqlar.

Ushbu tasnif mezonlari asosida nolisoniy semiotik to'siqlar guruhini ham kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda xabarning tildan boshqa semiotik belgilar orqali uzatilishidagi tushunmovchiliklar (ranglar, suratlar, ishora belgilari, yo'l belgilari, brayl alifbosi, surdomuloqot belgilari kabilar) qamrab olinadi.

V.P. Antonov va I.V. Pekarskaya quyidagi kommunikativ to'siq turlarini belgilaydi:

1. Atrof-muhit omillari ta'sirida yuzaga keladigan to'siqlar:

- akustik shovqin;
- chalg'ituvchi muhit;
- harorat sharoitlari;
- ob-havo sharoiti.

2. Texnik to'siqlar:

- texnologik muammolar;
- texnik vositalarning ishlashi bilan bog'liq;
- muloqot texnologiyasidan noto'g'ri foydalanish.

3. Inson omili bilan bog'liq muloqot to'siqlari:

- axborot yetishmasligi to'sig'i;
- hissiy to'siq;
- fonetik tushunmovchilik;
- semantik to'siq;
- stilistik to'siq;
- mantiqiy to'siq;
- ijtimoiy-madaniy to'siq;
- qabul qilish bilan bog'liq to'siqlar.

V.P. Antonov va I.V. Pekarskaya tasnifining afzal tomoni atrof-muhit omillari va texnik omillar alohida farqlab olingan bo'lsa, kamchiligi madaniy to'siqlar va ularning ichki (milliy, diniy, axloqiy, estetik) turlari e'tibordan chetda qolgan.

Atroq-muhit omillarga ob-havo, yorug'lik, akustik shovqin, makon-vaqt cheklovlari va muloqot ishtirokchilarining psixofiziologik holatiga ta'sir qiluvchi boshqa atrof-muhit holatlari kiradi. Masalan, COVID-19 virusi keltirib chiqargan pandemiya ana shunday global omillardan biri sifatida jamiyatdagi barcha sohalarda muloqotning buzilishiga olib keldi. Insoniyatning zudlik bilan ma'lumot uzatishning yangi kanallari va usullarini o'zlashtirishiga to'g'ri keldi.

Psixologiya fanlari doktori A.G. Samoxvalova kommunikativ to'siqlarni quyidagicha tasniflaydi:

Kommunikativ to'siqlar tasnifi

(A.G. Samoxvalova)

To'siq guruhlari To'siq turlari

Tushunmaslik to'siqlari:

- semantik;
- lisoniy;
- fonetik;
- uslubiy;
- mantiqiy;
- ortiqcha kommunikativ yuk.

Shaxsiy to'siqlar:

- individual farqlanish;
- ideologik;
- o'tmishdagi muloqotning salbiy tajribasi;
- tarafkashlik to'sig'i;
- salbiy munosabat to'sig'i;
- tushunmovchilikni kutish to'sig'i;
- yoshdagi farqlanish;
- muloqotning ahamiyatini yetarlicha tushunmaslik to'sig'i.

Madaniy to'siqlar:

- milliy;
- diniy;
- axloqiy;
- estetik.

Tashkiliy to'siqlar:

- haddan tashqari markazlashtirish;
- haddan tashqari farqlash;
- mas'uliyat va huquqlarning noaniqligi;
- ma'lumot almashishni istamaslik.

Ijtimoiy to'siqlar:

- kognitiv;
- status-rolli;
- professional;
- ta'lim to'siqlari.

Fizik to'siqlar:

- makon;
- vaqt;
- texnik.

Mazkur tasnif ancha mukammal shakllangan bo'lsa-da, ayrim munozarali o'rinlar mavjud deb hisoblaymiz. Birinchi guruhga semantik, lisoniy, fonetik, uslubiy, mantiqiy, ortiqcha kommunikativ yuk to'siq turlari kiritilgan. Fonetik, semantik, uslubiy to'siq turlari bilan lisoniy to'siq tushunchalari paradigmatic emas, giponimik munosabatda bo'lgani uchun ularni bir guruhga kiritish mantiqan o'rinli emas. Ijtimoiy to'siq guruhiga kiritilgan kognitiv to'siq turini esa 1-guruh (tushunmaslik to'siqlari)ga kiritgan ma'qul. Chunki, aynan, kognitiv tushunmovchiliklar kommunikativ to'siqqa sabab bo'ladi.

V.V. Kondrashina muloqot to'siqlarini quyidagicha tasniflaydi:

– ijtimoiy-madaniy to'siqlar (aksiologik, axloqiy va etnik va boshqalar) inson ijtimoiy-madaniy rivojlanishining o'ziga xos sharoitlarida shakllangan qadriyatlar, me'yorlar, stereotiplar va munosabatlar bilan bog'liq qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi;

– maqom-rol to'siqlari (avtoritet to'siq, maqom to'siq) jamiyatdagi mavqei (oilalashkilot va boshqalar), rol atributi, muassasa (ta'lim tizimi) maqomi bilan belgilanadi;

– psixologik to'siqlar (individual psixologik va shaxsiy munosabatlardagi to'siqlar) individual shaxsiy xususiyatlar va bir-birining aloqa sheriklarini qabul qilish yoki qabul qilmaslik bilan bog'liq;

– tushunishdagi to'siqlar (nutq to'siqlari).

Bizningcha, V.V. Kondrashinaning tasnifi ham o'ziga xos yondashuv bo'lib, antropotsentrik tamoyillarga mos kelishi bilan ahamiyatlidir. Ijtimoiy-madaniy to'siqlarni lingvokulturologik, maqom-rol to'siqlarini sotsiolingvistik, psixologik to'siqlarni psixolingvistik, tushunishdagi to'siqlarni lingvistik aspektida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ushbu tasniflarda ko'rsatilmagan semiotik to'siq ham mavjud bo'lib, faqatgina turli noverbal vositalar orqali muloqot talab qilinadigan o'rinlarda tushunmovchilikka, muloqot samarasizligiga olib keladi.



Ushbu rasmda ham nolisoniy semiotik to'siq mavjudligini ko'rishimiz mumkin. H₂O – suvning kimyoviy formulasi bo'lib, uning tarkibini bildiradi. Bu ma'lumot bilan tanish bo'lmagan til tashuvchisi rasmda keltirilganidek uning ma'nosi suv ekanligini anglamaydi va bu formula mavhum, noaniq belgi sifatida idrok etiladi.



kirish ta'qiqlangan



***velosipedda harakatlanish
ta'qiqlangan***



***yuk avtomobillarining
harakatlanishi ta'qiqlangan***

Qizil rangli belgilarning ta'qiqlovchi belgi ekanligini bilmagan harakatlanuvchilar bu belgilarning ma'nosini anglamasligi va noto'g'ri harakat sodir etishi mumkin. Muloqot bu – axborot, ma'lumot almashish jarayoni ekan, belgilarning ham jamiyat a'zolari uchun ma'lumot taqdim etishi nazarda tutilsa, ular ham muloqot vositasi hisoblanadi. Ular verbal vositalar (nutq tovushi yoki harflar) bilan ifodalanmagani uchun noverbal (boshqa semiotik tizim: ranglar, suratlar, ishora belgilari) muloqot vositalari hisoblanadi. Ana shu noverbal semiotik vositalarni tushunmaslik, idrok etmaslik yoki noto'g'ri talqin qilish (dekodlash) holatlari ham uchrab turadi. Ana shunday holatlar kommunikativ to'siq sifatida ko'riladi.

XULOSA

Aynan, shu tur bilan bog'liq bir masalani ham aytib o'tish kerakki, jismoniy nuqsoni bor shaxslar bilan muloqot jarayoni ko'p hollarda kommunikativ to'siqlarni keltirib chiqaradi. Aytaylik, sog'lom odam uchun brayl alifbosini yoki surdomuloqot belgilarini o'rganish zarurati bo'lmaydi. Demak, bunday vositalar orqali uzatilgan ma'lumotlar ular uchun tushunarsiz bo'ladi, ya'ni muloqot samarasiz kechadi. Ana shu holatlarning barchasini hisobga olib, semiotik to'siq turi ham mavjud degan xulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Попова Л.Л. Современные технологии общения [текст]: Учебное пособие / Л.Л.Попова. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2009. – 180с.
2. Брюхова О.Ю. Основы организации связей с общественностью. Екатеринбург: Издательство УрГУПС
3. 2014. – С. 92
4. Антонов В.П., Пекарская И.В. Культура речи и деловое общение. Курс лекций. Абакан, 2012.
5. Кондрашина В.В. Коммуникативные барьеры в современной образовательной практике // Psychology. Historical-critical Reviews and Current Researches. 2021, Vol. 10, – P.113-122
6. Рустамов Д.А. Мулоқотнинг интралингвистик ва экстралингвистик омиллари ҳамда замонавий концепциялари: филол. фанлари доктори (DSc) дисс... Андижон, 2021.
7. <https://homo-expertus.ru/wp-content>